

## ZAMONAVIY TADBIRKOR MADANIYATI VA MA'NAVIYATI

*Qodirova Nilufar G'ayratovna,  
Xakimova Shaxnoza Vohidjon qizi,  
Hoshimova Hulkaroy Djurayevna*

*Farg'onan shahar kasb-hunar maktabi maxsus fan o'qituvchilari*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada zamonaviy tadbirkorning madaniyati va ma'naviyati haqida qarashlar, faoliyat yuritayotgan har bir tadbirkor oldiga qo'yilgan talablar va uning rahbarlik qobiliyatlarini shakllantirish shart-sharoitlari aks ettirilgan.

**Kalit so'zlar:** Raxbar psixologiyasi, shaxs madaniyati, boshqaruvin madaniyati, tadbirkorlik, muloqot, xulq-atvor, xususiyatlar, tashkilotchilik qobiliyati.

**Аннотация:** В данной статье отражены взгляды на культуру и духовность современного предпринимателя, требования к каждому предпринимателю и условия формирования его лидерских качеств.

**Ключевые слова:** психология лидера, культура личности, культура правления, предпринимательство, общение, поведение, характеристики, организаторские способности.

## KIRISH

*Tadbirkorlar hamjamiyati nopoq tadbirkorlarga nisbatan murosasiz bo'lishi lozim. Ularga nisbatan birinchi navbatda davlat emas, balki tadbirkorlarning o'zlarini munosabat bildiradigan va ushbu muhit sofligini ta'minlaydigan tizim yaratishimiz kerak.*

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev*

"Tadbirkorlik – bu muloqotdir. Muloqot – insonlar o'rtasida o'zaro munosabatlar jarayoni bo'lib, doimiy ravishda diqqat-e'tibor talab qiladi. Tadbirkor amalga oshirayotgan faoliyati jarayonida boshliqlar, yollanib ishlovchilar va boshqa tadbirkorlar bilan muomalada bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'zaro munosabatlar shakllanishida shaxsiy sifatlar rolini e'tirof etadi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishdan avval uning mas'uliyatini to'liq his etish lozim. Tadbirkorlik mas'uliyati, eng avvalo, qonun hujjatlarida belgilab berilgan huquq va majburiyatlarning bajarilishi orqali namoyon bo'ladi.

Tadbirkorlik va biznesni tashkil etishdagi mehnat motivasiyasini o'rganishga bag'ishlangan izlanishlar bir talay bo'lib, xorij olimlari ushbu yo'nalishda qator nazariyalarni ishlab chiqishgan. Tadbirkor rahbarning tashkilotchiligi mehnat

jamoasini uyuştirish, jipslashtirish, ishlab chiqarish va tarbiyaviy jarayonlarga ta'sir ko'rsatish, guruh faoliyatini oliy maqsadlarga qarata olish qobiliyati kabi masalalarini qamrab oladi

Zamonaviy tadbirkor shaxsi ma'naviyati va faoliyatini baholashda avvalo tadbirkor faoliyatining samaradorligiga e'tibor qaratiladi. “ Tadbirkor rahbar faoliyatining samaradorligi rahbar shaxsning tafakkuri, aql-idrokiga ham bevosita bog'liq bo'ladi. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlay olish, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan bexato ajrata olish imkoniyatini beradi. Bu - hammaga ham nasib qilavermaydigan yuksak fazilat. Agar rahbarda shular bu kabi sifatlar shakllangan bo'lsa, bunday rahbar boshqaruvning sir-asrorlarini qiyalmasdan egallaydi hamda o'z jamoasida obro' e'tiborga ega bo'lib, ular ishonchini qozonadi. Demak, har qanday rahbar keng va chuqur fikrlay olishi bilan birga, chaqqon va uddaburon, harakatchan va shijoatli bo'lishi ham kerak. Shuning uchun rahbarlik faoliyatini tafakkur va harakat birligi deyish mumkin. Rahbardagi o'ziga xos talabchanlik, mehribonlik hamda mas'uliyat jamoa a'zolarida ham javobgarlik hissining shakllanishiga sabab bo'ladi.

Jamiyatda rahbar shaxsining axloqiy madaniyatini shakllantirishdan maqsad -an'anaviy va ijodiy elementlarning uyg'unligiga erishish, shaxsning aniq bir tajribasini jamoatchilik axloqi bilan birlashtirishdan iborat. Rahbar shaxsi ma'naviyati - yaxlit tizim bo'lib, axloqiy fikrlash madaniyatini qamrab oladi.O'z ichiga yana tuyg'ular madaniyatini, insонning —axloqiy rezonansga qobiligi, jonkuyarligini; axloqiy tajribada his-tuyg'u va o'ylarning amalga oshirilish qiyofasini, ularning kundalik hayotda xatti-harakat me'yoriga aylanib borish darajasini xarakterlovchi xulq-atvor madaniyati; shakllarni reglamentlovchi qoidalarga qay darajada amal qilish sifatidagi etiketni, muloqotda shaxsning o'zini tuta bilishini oladi.Ya'ni, rahbar shaxsi ma'naviyati – uning jamiyatning barcha odob-axloqqa oid qoidalarni bilish, ularni chuqur his etishi, xatti harakatlarning eng munosib shaklini qo'llay bilishi xisoblanadi. Odob-axloqqa oid qoidalarning barcha elementini o'zlashtirish rahbar shaxsining axloqiy madma'naviyati mustahkamligini shakllantirishga yordam beradi.Ma'naviyati shakllangan rahbar adolatsizlik, qonun buzilishlari, Vatan manfaatlariga zid harakatlarga qarshi kurashda iroda, shijoat va faollik ko'rsata oladi.

Tadbirkorning tashkilotchilik qobiliyati hamma narsada muvaffaqiyatga erishuvining muhim shartidir.

Tadbirkor rahbarda tashkilotchilik qobiliyatining namoyon bo'lishi: Rahbarning odamlar bilan til topib ishslash mahorati: Tadbirkor rahbarning mehnatga munosabatida ishbilarmonligi:

- Rahbar faoliyatida ijro etish qobiliyatining namoyon bo'lishi:
- Tadbirkor rahbarning qarorlarni qabul qilishdagi uquvi:

- Tadbirkor rahbarning odamlarga munosabati:
- Tadbirkor rahbarning o'z-o'ziga talabchanligi:

Rahbarlikka hos bo'lgan ayrim sifat qobiliyatlar borki, ular rahbar faoliyatining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, har qanday rahbarda intellekt-aql-zakovatning ma'lum normasi bo'lishi kerak. Bu norma yaxshi rahbar uchun o'rtadan yuqori bo'lmosg'i maqsadga muvofiqdir, chunki geniy darajasidagi intellektga ega bo'lgan rahbar bilan ishlash xodimlari uchun qator noqul ayliklarni keltirib chiqarishini, bunday aql-zakovat qolganlarning ijobiy rivojlanishiga psixologik to'siq bo'lishini amaliyot va hayot ko'rsatdi. Rahbardagi o'rtadan yuqori intellektni qoplab ketadigan boshqa yana muhim sifatlar borki, ular boshqarish ishining samarasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, rahbarning mustaqil fikrlilik, topqirlik tashabbuskorlik sifatlari. CHunki ayrim hollarda xato qilsa ham, rahbar orginal fikrlar aytib, yo'l-yo'riqlar ko'rsata olishi, har bir aytilgan fikr, qilingan ishga mustaqil baho bera olishi zarur. Tadbirkor rahbar va xodimlar o'rtasidagi ruhiy psixologik ziddiyatlar kelibchiqishga sabab:

- mehnat jarayonining noto'g'ri uyuşhtirilishi;
- shaxslararo munosabatlarning xilma-xilligi va murakkabligi;
- jamoa a'zosining o'ziga xosligidir

Tadbirkor rahbarda tashkilotchilik qobiliyatining nam oy on bo'lishi:

- jamoada sof axloqiy muhit paydo qila olishi, hammaning hamkorlikda harakat qilishini ta'minlay olishi;
- kishilarni ishontira olishi va jamoada o'zaro yaxshi m unosabatlarni qaror toptirish uchun shart-sharoit yaratishi.

Rahbarning kishilar bilan til topib ishlash mahorati:

- tadbirkor o'z qo'l ostidagilarning nimaga qodirligini hisobga olib ishlarni taqsimlashi;

kishilarni uyuştirishning eng m uhim omillaridan foydalanishi;

Tadbirkor rahbarning mehnatga munosabatida ishbilarmonligi quyidagilarda ko'rindi:

- ishlab chiqarish va boshqa jabhalarda har xil muammolarni hal etishda eng qulay yo'llarini izlab topish;
- vijdonlilik va adolatlilik;
- boshlagan ishlarni oxiriga etkazish.

Xulosa qilib aytganda tadbirkor faoliyati faqat tadbirkorlikning huquqiy va tashkiliy asoslariga bog'liq bo'lmay, u insonlar, qo'l ostida xizmat qiluvchi mutaxassislar va ishchilar, ayniqsa, chet ellik hamkasblari biznesmenlar doirasida umumaxloqiy me'yordarga rioya qilishi bilan ham baholanadi. Ishdag'i muvaffaqiyatning yarmidan ko'prog'i uning odobi, madaniyati, dunyoqarashi, ishbilarmonlik qoidalarini qay darajada bilishiga bevosita bog'liqdir. Bozor



iqtisodiyoti sharoiti tadbirkor rahbarlardan boshqaruv uslublarini takomillashtirishni talab etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Sh.M.Mirziyoev. "O'zbekiston respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi pf-4947-sonli farmoni. ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: "Ma'naviyat", 2008 - 176 b.
2. Andreeva G.M. Sotsial'naya psixologiya: Uchebnik dlya vo'SHix uchebno'x zavedeniy / G.M. Andreeva.- 5-e izd., ispr. i dop. – M.: Aspekt Press, 2003 – 364. Bromley Yu.V. Etnos i etnografiya. – M.: Nauka, 1973
3. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik.- T., 2012 – 196 b.
4. Mamatov M. Milliy psixologik qiyofa va uning xususiyatlari. T.: O'zbekiston,

